

MAQOL-TEZ AYTISHLARDA MOTIVATSION MEXANIZM VA JANRIY TRANSFORMATSIIYA MASALALARI

Ayupova Xilola Azamatovna

Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: hilolaayupoa088@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18862805>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va rus xalq og'zaki ijodidagi maqol-tez aytishlar fenomeni motivatsion mexanizm nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, maqollarning alliteratsiya va assonans asosida tez aytish vazifasini bajarishi, bunda til o'yini, didaktik va gedonistik omillar uyg'unligi natijasida yuzaga keladigan motivatsion mexanizm mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, folklor mikrojanrlarining o'zaro aloqadorligi va bir-biriga o'tish jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar

folklor, mikrojanr, maqol-tez aytish, motivatsion mexanizm, alliteratsiya, assonans, til o'yini, didaktika, janriy transformatsiya.

Folklor janrlarini tasniflash va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganish folklorshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, mikrojanrlar — tez aytish, maqol, topishmoq va sanamalar — o'zining ixchamligi va poetik tabiati bilan ajralib turadi.

Mazkur maqolada e'tibor mikrojanrlar kesishgan nuqtada yuzaga keladigan hodisa — maqol-tez aytishlarga qaratiladi. Bu birliklar oddiy janriy almashinuv emas, balki ma'lum bir **motivatsion mexanizm** asosida shakllanuvchi murakkab folklor hodisasidir.

Bizga ma'lumki, xalq og'zaki ijodi namunalari ham barcha san'at asarlari kabi tuzilishi, ijro o'rni, ko'rinishi, bajaradigan vazifasi, musiqaga bog'liqlik darajasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra muayyan tur, guruh va janrlarga bo'lib o'rganiladi. Bu xil tur, guruh va janrlarga ajratish, tasniflash nafaqat ijrochilar, balki tinglovchilar, hodisani tadqiq etuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, folklor namunalarning tabiati, shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti, u yoki bu tur va janrlarning paydo bo'lishi, mukammal shaklga kelishi, o'zgarishlarga uchrashi, o'rin almashinishi va inqirozga yuz tutishi kabi jarayonlarni kuzatish, o'rganish imkonini beradi.

O'zbek folklori janrlar tarkibi boyligi, xilmaxilligi bilan alohida ajralib turadi. Bu o'rinda dunyoning barcha xalqlari uchun umumiy bo'lgan – ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar qatorida askiya, lof kabi faqat o'zbek xalq ijodiga xos janrlar mavjudligiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Shu sababli, folklor janrlari bir-biriga bog'liq holda taraqqiy etadi, sayqallanadi, shuningdek, vaqtlar o'tishi bilan bir-biriga o'tishi yoki tabiati jihatidan bir-biriga yaqinlashishi mumkin.

Tez aytish, maqol, topishmoq, sanama kabi janrlar folklorning mikrojanrlari hisoblanadi. Bu mikrojanrlarning qisqaligi, barqarorligi, poetik shakllantirilganligi kabi xususiyatlari ularning bolalar folklorida barqarorlashiga asos bo'lgan. Maqol janri bolalar folkloridan ko'ra kattalar folkloriga xos janr bo'lsa ham, uning alliteratsiyaga asoslangan ba'zi namunalari tez aytishlar o'rnida qo'llangan. Bunday maqol-tez aytishlarda endi maqollarga xos aforistik mohiyatdan ko'ra tez aytish sifatidagi til o'yini mexanizmining ishga tushishi muhim bo'lgan.

Tez aytish janrining maqol, topishmoq, sanama janrlari bilan aloqasi, ularning bir-biriga o'tishi, bu janrlar orasidagi munosabatlar folklorshunos I.Madiyarov tadqiqotida asoslangan. Unga ko'ra "...insoniyatning ijtimoiy-madaniy hayotida ham turli-tuman o'zgarishlar yuz berib,

u og'zaki ijodga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shuning uchun xalq hayotida ro'y bergan har qanday o'zgarish folklorda, xususan, uning janrlarida qandaydir ko'rinishda, muayyan shakl va mazmunda o'z izini qoldiradi. Masalan, folklorning yirik janri bo'lgan dostonlarda xalqning to'y va motam marosimlari bilan bog'liq ko'plab voqea-hodisalar uchraganidek, bu holat folklorning maqol, topishmoq, tez aytish kabi kichik janrlarida ham ma'lum darajada, aniqrog'i, janrning hajm, g'oyaviy-badiiy, ijtimoiy-maishiy xususiyat va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z aksini topadi. Shu sababli, folklor janrlari bir-biriga bog'liq holda taraqqiy etadi, sayqallanadi, shuningdek, vaqtlar o'tishi bilan bir-biriga o'tishi yoki tabiati jihatidan bir-biriga yaqinlashishi mumkin" (2) I.Madiyarov o'z fikrini B.Sarimsoqov, Z.Xusainova, O.Safarov hamda B.Soatovlar (3,4,6,7) ning nazariy qarashlariga tayangan holda asoslaydi. O'zbek xalqida maqollarga xos xususiyatlarni aks ettiradigan tez aytish elementlari ham uchrab turishini quyidagi misol orqali izohlaydi:

“Oltin olmay olqish olgan odam – odam” (1).

Biz ham folklor janrlarining vaqtlar o'tishi bilan bir-biriga o'tishi haqidagi fikrlarga qo'shilgan holda maqol, topishmoq, sanama kabi janrlarning tez aytish o'rnida kelishini, tez aytishlar vazifasini bajarishini, bolalar o'yin folklori janri sifatida o'yin mexanizmiga asoslanishini qayd etamiz. Bunday o'yin mexanizmi har ikki xalq tez aytishlaridagi tipologik xususiyat bo'lib, uning yuzaga chiqish omillari va vositalari ham o'xshash.

Biz yuqoridagi fikrlarni keltirib o'tishimizdan asosiy maqsad, o'zbek va rus xalq tez aytishlarini o'rganish jarayonida tez aytish o'rnida kelgan maqol, topishmoq va sanamalarni, shuningdek, maqol, topishmoq va sanamalarning tez aytishlarga yaqin namunalarini uchratdik.

Masalan, Zolimga zorlanma zinhor (1) maqoli tez aytish o'rnida qo'llangan. Bunga sabab esa ushbu maqolning alliteratsiyaga asoslanganidir. Ushbu maqol mohiyatida zolimga zinhor zorlanmaslik haqidagi hukm asosidagi nasihat berish yotadi. Uning alliteratsiya va assonans asosidagi musiqiyligi uning tez aytish sifatida qo'llanilishiga, tez talaffuz qilinishiga, ya'ni til o'yini mexanizmining ishga tushishiga imkon bergan. Bundan ko'rinadiki, har qanday maqol ham tez aytishlar o'rnida qo'llanavermagan. Maqollarning tez aytishlar o'rnida qo'llanishi uchun asosiy shart maqol matnining alliteratsiya, o'zakdosh (ishtiyoq)lik asosida shakllangan so'zlardan iborat bo'lishidir. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin:

Dangalchi dangal gapirar,

Dangasa chang chiqarar (1).

Yoki:

Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim.

Yuqoridagi maqol-tez aytishlar, bir tomondan yoshlarga tarbiya berish bilan didaktik vazifa bajargan bo'lsa, ikkinchi tomondan tez aytishlarga xos o'yin mexanizmining ishga tushishi natijasida gedonistik vazifa ham bajargan. Bu har ikki maishiy vazifa esa uning pedagogik vazifasining amalga oshishiga xizmat qilgan.

Maqollarga xos xususiyatlarning tez aytishlarda ham mavjudligi rus xalq tez aytishlarida ham uchraydi:

Женя с Жанной подружилась.

Дружба с Жанной не сложилась.

Чтобы жить с друзьями дружно,

Обижать друзей не нужно (5).

Tarjimasi:

Jenya Janna bilan do'stlashdi.

Janna bilan do'stlik ish bermadi.

Do'stlar bilan birga yashash uchun,

Do'stlarni xafa qilish kerak emas.

Ushbu misolda Jenya ismli bolakayning Janna ismli bola bilan do'st tutingani, lekin uning dilini og'ritib qo'ygani haqida so'z ketadi. Bu maqol-tez aytish orqali bolalarga do'st bo'lish uchun doim to'g'riso'z bo'lish, do'stning diliga ozor bermaslik kabi fazilatlar o'rgatilgan. Shuningdek, ushbu tez aytish matnidagi "j" tovushi alliteratsiya asosidagi so'zlarning talaffuz qilinishida chalg'ish, yanglishish natijasida kulgi mexanizmi ishga tushgan, ya'ni uning maishiy vazifasi amalga oshgan. Biroq bularning barchasi bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni to'g'rilashdek bosh maqsadga xizmat qildirilgan.

Xulosa

Maqol-tez aytishlar folklor mikrojanrlarining kesishgan nuqtasida yuzaga keladigan murakkab hodisa bo'lib, ularning shakllanishida motivatsion mexanizm hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ushbu mexanizm fonetik, didaktik, o'yin omillarning uyg'unligi asosida yuzaga keladi. Natijada maqollar tez aytish vazifasini bajarib, ikki tomonlama funksional birlikka aylanadi.

Bu esa folklor janrlarining dinamik, o'zgaruvchan va o'zaro bog'liq tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Болалар учун тез айтишлар. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Аввалбоева И. – Тошкент: Юрист-медиа маркази, 2019. – Б. 63.
2. Мадияров И.Б. Ўзбек ва қорақалпоқ халқ тез айтишлари типологияси: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. — Тошкент, 2021. — 80-б.
3. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 7-китоб: Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. — Тошкент: Фан, 1981. — 101-б.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. — Toshkent: Musiqqa, 2010. — 60-b.
5. Собянина А.А. Картотека скороговорок для развития речи. — М., 2000. — 3-с.
6. Соатов Б. Паремнологик жанрларнинг ўзаро муносабатлари масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1998. — № 3. — 36-б.
7. Хусаинова З. Ўзбек топишмоқлари. — Тошкент: Фан, 1966. — 14-б.